

TIJORAT BANKLARINING KREDIT DAROMADLILIGINI OSHIRISH YO'LLARI

Jo'rayeva Zarifa Bahodir qizi

Termiz davlat universiteti

Moliya kafedrası tayanch doktoranti

E-mail: j.zarifa.1993@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20824433>

2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida davlat ulushiga ega tijorat banklarida transformatsiya jarayonlarini yakunlab, 2026-yil yakuniga qadar bank aktivlarida xususiy sektor ulushi 60 foizgacha chiqarilishi, iqtisodiyotning yuqori o'sish sur'atlarini saqlab qolish, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash bo'yicha amaliy choralarni doimiy ravishda ko'rib borish belgilangan¹.

Uerta de Sotoning fikriga ko'ra, birinchidan, tijorat banklari kreditlarining foiz stavkalarini pasayishi bunga qadar foyda keltirmayotgan investitsiya loyihalarini foyda keltiradigan investitsiya loyihalariga aylantiradi; ikkinchidan, banklar tomonidan ixtiyoriy jamg'armalar bilan ta'minlanmagan kreditlar hisobidan investitsiya loyihalarini moliyalashtirilishi, pirovard natijada, investitsiya loyihalarining barbod bo'lishiga va berilgan kreditlarning qaytmasligiga olib keladi².

U.Sotoning mazkur xulosasi O'zbekiston bank amaliyoti uchun amaliy ahamiyati kasb etadi. Buning sababi shundaki, tijorat banklarining investitsion kreditlarini foiz stavkasini yuqori ekanligi investitsiya loyihalarining samaradorligiga nisbatan salbiy ta'sirni yuzaga keltirmoqda.

Kredit xizmatlarining holatini tavsiflovchi muhim ko'rsatkichlardan biri bo'lib, kreditlardan olingan foizli daromadlarning miqdori va ularning foizli daromadlarning umumiy hajmidagi salmog'ining o'zgarishi hisoblanadi. Bu ko'rsatkichni tahlil qilib borish tijorat banklari uchun o'ta muhim hisoblanadi.

1-jadval

“Barclays bank”ning (Buyuk Britaniya) kreditlardan olingan foizli daromadlarining miqdori va darajasi³

Ko'rsatkichlar	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.	2024-y.
Kreditlardan olingan foizli daromadlar, mln. funt sterling	10 180	9 540	12 125	14 742	17 836
Kreditlardan olingan foizli daromadlarning jami foizli daromadlardagi ulushi, %	85,6	84,9	63,5	42,0	46,5

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni. 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida// Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son, 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-son, 21.04.2022-y., 06/22/113/0330-son; 10.02.2023-y., 06/23/21/0085-son; 03.01.2024-y., 06/24/221/0003-son; 28.12.2024-y., 06/24/227/1089-son; 01.03.2025-y., 06/25/27/0196-son; 20.05.2025-y., 06/25/87/0451-son; 08.08.2025-y., 06/25/126/0704-son; 17.02.2026-y., 06/26/21/0145-son

² Уэрто де Сото Хесус. Денги, банковский кредит и экономические циклы. Пер. с англ. – Челябинск: Социум, 2008. – 666 с.

³ Jadval Annual Reports. Concolidated Statement of income. <https://www.barclays.co.uk/> («Barclays bank») ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan aniq ko'rinadiki, "Barclays bank"ning kreditlardan olingan foizli daromadlarining miqdori 2021-yilda 2020-yilga nisbatan sezilarli darajada pasaygan. Bu esa, bankning kreditlash amaliyotini takomillashtirish nuqtai-nazaridan salbiy holat hisoblanadi. Buning asosiy sababi, 2019-yilda butun jahonga bo'yicha tarqalgan COVID-19 pandemiyasi hisoblanadi. 2022-2024-yillarda barqaror o'sish tendensiyaga ega bo'lgan. Buni bank bankning kreditlash amaliyotini takomillashtirish nuqtai-nazaridan ijobiy holatdir.

Buyuk Britaniya bank amaliyotida tijorat banklarining foizli daromadlarini uch guruhi mavjud:

- qat'iy belgilangan stavkaga ega bo'lgan qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalardan olingan foizli daromadlar;

- kreditlardan olingan foizli daromadlar;


- qimmatli qog'ozlarni oldi-sotdi qilishdan olingan daromadlar.

1-jadval ma'lumotlar va tahlil natijalaridan ko'rishmiz mumkinki, "Barclays bank"ning kreditlardan olingan foizli daromadlarining jami foizli daromadlardagi ulushi 2021-yilda 2020-yilga nisbatan 0,7 punktga pasayganligini, 2023-yilda 2021-yilga nisbatan sezilarli darajada pasayganligi, 2024-yil 2023-yilga nisbatan 2,5 punktga oshganligini ko'rishimiz mumkin.

Kredit amaliyotida zamonaviy holatini tavsiflovchi muhim ko'rsatkichlardan biri bo'lib, kreditlarning o'sish sur'ati bilan kreditlardan olingan foizli daromadlarning o'sish sur'ati o'rtasidagi mutanosiblik ko'rsatkichi hisoblanadi. Agar, kreditlarning o'sish sur'ati kreditlardan olingan foizli daromadlarning o'sish sur'atidan yuqori bo'lsa, u holda, mazkur ikki ko'rsatkich o'rtasidagi mutanosiblik ta'minlanmagan hisoblanadi. Quyidagi ikki holatda kreditlarning o'sish sur'ati bilan kreditlardan olingan foizli daromadlarning o'sish sur'ati o'rtasidagi mutanosiblik ta'minlangan hisoblanadi:

- kreditlarning o'sish sur'ati kreditlardan olingan foizli daromadlarning o'sish sur'atidan past bo'lsa;

- kreditlarning o'sish sur'ati bilan kreditlardan olingan foizli daromadlarning o'sish sur'ati teng bo'lsa.



2.4-rasm. TIF "Milliy bank" kreditlar va kreditlardan olingan foizli daromadlarning yillik o'sish sur'ati⁴

⁴ Rasm muallif tomonidan TIF "Milliy bank"ning yillik hisobotlari ma'lumotlari asosida tuzilgan.

1-rasm ma'lumotlaridan aniq ko'rinadiki, TIF "Milliy bank" kreditlar va kreditlardan olingan foizli daromadlarning yillik o'sish sur'ati o'rtasidagi mutanosiblik 2020 va 2022-2024-yillarda ta'minlangan. Chunki, mazkur davrda kreditlardan olingan foizli daromadlarning o'sish sur'ati kreditlarning o'sish sur'atidan yuqori bo'lgan. Faqat 2021-yilga kelib kreditlar va kreditlardan olingan foizli daromadlarning yillik o'sish sur'ati o'rtasidagi mutanosiblik ta'minlanmagan.

Tadqiqot va tahlil natijalarimiz shuni ko'rsatadiki, birinchidan, kreditlarning daromadliligi banklarning kredit portfelini sifatini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi; ikkinchidan, kreditlardan olingan foizli daromadlarning miqdori va darajasi bankning moliyaviy barqarorligini ta'minlashning zaruriy shartlaridan biridir. O'z navbatida, kreditlardan olingan foizli daromadlar miqdorining oshishi kreditlar hajmining oshishiga va kreditlarning foiz stavkalarini ko'tarilishi natijasidir. Biroq, kreditlar hajmining sakragansimon o'sishi va kreditlarning foiz stavkalarini keskin ko'tarilishi tijorat banklari kreditlarining daromadliligiga nisbatan kuchli salbiy ta'sirni yuzaga keltiradi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni. 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida// Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son, 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-son, 21.04.2022-y., 06/22/113/0330-son; 10.02.2023-y., 06/23/21/0085-son; 03.01.2024-y., 06/24/221/0003-son; 28.12.2024-y., 06/24/227/1089-son; 01.03.2025-y., 06/25/27/0196-son; 20.05.2025-y., 06/25/87/0451-son; 08.08.2025-y., 06/25/126/0704-son; 17.02.2026-y., 06/26/21/0145-son.
2. Uerto de Soto Xesus. Dengi, bankovskiy kredit i ekonomicheskoye sikly. Per. s angl. – Chelyabinsk: Sotsium, 2008. – 666 s.
3. Jadval Annual Reports. Concolidated Statement of income. <https://www.barclays.co.uk/> («Barclays bank») ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.
4. TIF "Milliy bank"ning yillik hisobotlari. 2020, 2021, 2022, 2023, 2024. <https://www.nbu.uz/>